

MAHKUMLAR MEHNATIGA HAQ TO‘LASH

Toshpo‘latov Laziz Ahror o‘g‘li

IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: *Mahkumlar mehnatiga haq to‘lash masalasi jinoiy-ijroiya tizimidagi eng dolzarb, shu bilan birga, murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Jinoyat sodir etgan shaxs jazoni ijro etish muassasasida qamoq jazosini o‘tayotgan davrda jamoatchilik manfaatlari yo‘lida mehnat qilishi mumkin yoki qonun bilan belgilanadigan holatlarda bunday mehnat majburiy bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, har qanday mehnat faoliyati uchun tegishli mehnat haqi belgilanishi zarur. Bu, birinchidan, mahkumning insoniy qadr-qimmatini saqlash, ikkinchidan, uni ijtimoiy reabilitatsiyaga tayyorlash, uchinchidan esa, davlatning konstitutsiyaviy va xalqaro majburiyatlarini bajarish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida mahkumlarning mehnat faoliyati va ular mehnatiga haq to‘lash tizimi yoritilgan, xalqaro huquqiy normalar bilan solishtirilib, mavjud muammolar, mehnat shart-sharoitlari, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, mahkumlarning iqtisodiy faolligi darajasi, shuningdek, ularning ish haqlarining undirilishi (aliment, kompensatsiya, jarima va hokazolar) bilan bog‘liq holatlar tahlil qilingan. Shuningdek, mehnatga haq to‘lashda adolat mezonlariga rioya etilmasligi, mehnat huquqlari bo‘yicha ma‘lumotlarning ochiq emasligi, ishlab chiqarish obyektlarining yetishmasligi kabi tizimli muammolar ham muhokama qilinadi. Maqolada ilgari surilgan takliflar qatorida jazoni ijro etish muassasalarida maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish, mahkumlar mehnatiga munosib haq to‘lashni kafolatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish, mehnat sharoitlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ish haqi darajasini qonuniy mehnatga muvofiqlashtirish va korrupsion holatlarning oldini olish uchun ochiq ma‘lumotlar bazasini joriy etish zarurligi ta‘kidlanadi. Ushbu tahlil orqali mahkumlarning mehnati ularni jazodan keyingi hayotga tayyorlash, oilaviy majburiyatlarni bajarishga hissa qo‘shish, iqtisodiy faol subyekt sifatida jamiyatga qayta integratsiyalash imkoniyatlarini yaratish vositasi sifatida ko‘riladi.*

Kalit so‘zlar: mahkumlar, mehnat, mehnatga haq to‘lash, jazoni ijro etish muassasasi, ish haqi, inson huquqlari, reabilitatsiya, jazoni ijro etish tizimi, xalqaro standartlar, huquqiy asoslar, majburiy mehnat, ochiq ma‘lumotlar, isloh qilish, ijtimoiy moslashuv.

Аннотация: *Оплата труда осуждённых — одна из наиболее актуальных и многогранных социально-правовых проблем в системе исполнения наказаний. Лица, отбывающие наказание в местах лишения свободы, могут привлекаться к труду как на добровольной основе, так и в обязательном порядке, предусмотренном законодательством. Однако независимо от характера труда, каждому осуждённому должно быть гарантировано получение справедливой оплаты. Это важно как с точки зрения соблюдения прав человека и человеческого достоинства, так и в целях их ресоциализации и исполнения международных обязательств*

20-May, 2025-yil

государства. В данной статье рассматривается действующее законодательство Республики Узбекистан, регулирующее трудовую деятельность осуждённых и порядок оплаты их труда, проводится сравнительный анализ с международными нормами. Освещаются текущие проблемы — несоответствие условий труда стандартам, недостаточная прозрачность в распределении заработной платы, слабое развитие производственной базы, а также вопросы удержания части зарплаты по обязательствам (алименты, штрафы, компенсации и пр.). Автор обращает внимание на необходимость реформирования существующей системы: создания производственных кластеров при пенитенциарных учреждениях, внедрения механизмов, обеспечивающих достойную оплату труда, повышения прозрачности финансовых потоков, создания условий, соответствующих трудовому законодательству и международным стандартам. Оплата труда заключённых рассматривается не только как элемент исполнения наказания, но и как инструмент подготовки к жизни на свободе, поддержки семьи и постепенного возвращения в общество в качестве экономически активного и социально ответственного гражданина.

Ключевые слова: заключённые, труд, оплата труда, исправительные учреждения, заработная плата, права человека, ресоциализация, пенитенциарная система, международные стандарты, правовые основы, принудительный труд, открытые данные, исправление, социальная адаптация.

Abstract: The issue of remunerating the labor of prisoners is one of the most pressing and complex socio-legal challenges within the penal system. Inmates serving sentences in correctional facilities may be engaged in labor activities either voluntarily or as mandated by law. Regardless of the form of engagement, prisoners are entitled to fair compensation for their labor. This right is essential not only for preserving their human dignity but also for facilitating their social reintegration and ensuring compliance with national and international legal obligations. This article examines the legal framework governing inmate labor and wage practices in the Republic of Uzbekistan, comparing it with international standards. It analyzes key challenges such as inadequate labor conditions, lack of transparency in wage distribution, limited industrial capacity within correctional institutions, and the complexities of wage deductions for debts, such as alimony, fines, and restitution. The article proposes several policy improvements, including the establishment of special economic zones within correctional facilities, implementation of mechanisms to ensure fair wages, alignment of working conditions with international labor standards, and the introduction of open data systems to reduce corruption risks and enhance accountability. Through this analysis, prisoner labor is conceptualized not merely as a punitive measure but as a rehabilitative tool — one that helps offenders contribute to family obligations, supports their eventual economic self-sufficiency, and fosters their reintegration into society as responsible and economically active individuals.

Key words: *prisoners, labor, remuneration, correctional facilities, wages, human rights, rehabilitation, penal system, international standards, legal framework, forced labor, open data, correction, social reintegration.*

KIRISH

Zamonaviy huquqiy demokratik jamiyatlarda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va har bir fuqaroning mehnat faoliyatini qonuniy tartibda amalga oshirishiga zamin yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu tamoyillar, shubhasiz, ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etilishi lozim. Jumladan, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarning mehnat huquqlari, ularning mehnatiga munosib haq to'lanishi, mehnat sharoitlarining insoniylik mezonlariga javob berishi masalalari huquqiy va axloqiy nuqtai nazardan ham dolzarb hisoblanadi. Mahkumlar mehnati nafaqat jazoni ijro etishning bir shakli, balki ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, mehnatga bo'lgan odat va malakalarni shakllantirish, iqtisodiy jihatdan faol fuqaroga aylantirish vositasi sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, mehnat orqali mahkumlar o'z oilasi, davlat yoki jabrlanuvchilar oldidagi moddiy majburiyatlarini qoplash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli ham mahkumlar mehnatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlari chuqur ilmiy tahlil etilishi va amaliyotga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mehnat qilish har bir fuqaroning huquqi ekanligi belgilangan bo'lib, bu me'yor jazoni ijro etish tizimidagi mahkumlar uchun ham amal qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham mahkumlarning mehnat faoliyati, ularni ishga jalb qilish tartibi, mehnatga haq to'lash mexanizmlari belgilab qo'yilgan. Biroq, mavjud huquqiy asoslar amaliyotda to'liq tatbiq etilmayotgani, ayrim hollarda mahkumlarning mehnatga jalb qilinishi va ularga haq to'lanishida qonunbuzilishlar, adolatsizliklar, shaffoflikning yetishmasligi kabi muammolar kuzatilmoqda. Xalqaro huquq normalarida, xususan, BMTning "Mahkumlarga nisbatan muomala standart minimal qoidalari" (Nelson Mandela qoidalari), Xalqaro mehnat tashkilotining 29-sonli konvensiyasi (majburiy mehnat haqida) va boshqa hujjatlarda mahkumlar mehnati mustaqil va erkin tanlov asosida amalga oshirilishi lozimligi, ish sharoitlari sog'lom va xavfsiz bo'lishi, mehnatga to'lanadigan haq esa adolatli va minimal yashash darajasini ta'minlay oladigan miqdorda bo'lishi belgilangan. Ushbu xalqaro talablarga muvofiq holda ichki qonunchilikni takomillashtirish va eng asosiysi, ularni amaliyotga to'liq tatbiq etish bugungi kunda nihoyatda muhim vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mahkumlarning mehnatga jalb qilinishi bilan bog'liq faoliyatda ularning huquqlari, qadr-qimmati, shaxsiy xavfsizligi, sog'lig'i va huquqiy manfaatlarini to'liq ta'minlash lozim. Har qanday mehnat faoliyati iqtisodiy manfaatdorlikka asoslangan bo'lishi, mehnatga munosib haq to'lanishi esa ularning jamiyatga qaytishda ijtimoiy moslashuvi va reintegratsiyasi uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, jinoyatchilikning qayta sodir etilishining oldini olish, jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirilishi orqali jamiyatdagi barqarorlik va xavfsizlikka xizmat qiladi. Mazkur maqolada aynan mahkumlar mehnatiga

20-May, 2025-yil

haq to‘lash masalasiga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu jarayondagi mavjud muammo va to‘siqlar, huquqiy-huquqiy jihatlar, xalqaro amaliyotdagi yondashuvlar, shuningdek, O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar doirasida taklif etilishi mumkin bo‘lgan yangi mexanizmlar tahlil qilinadi. Asosiy maqsad – jazoni ijro etish tizimida mahkumlar mehnatini samarali tashkil etish, ularning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish va mehnatga haq to‘lashda adolatli yondashuvni ta‘minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

ASOSIY QISM

Mahkumlarning mehnat faoliyati jazo ijro etish tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat ijtimoiy foydali ish orqali mahkumlarning ijtimoiylashuviga, balki ularning mehnatga munosib haq olish huquqini ta‘minlashga xizmat qilishi kerak. Afsuski, bugungi kunda bu sohada mavjud bo‘lgan amaliy holatlar, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va moliyaviy mexanizmlarning yetarlicha takomillashmaganligi mahkumlar mehnatiga nisbatan adolatli yondashuvga to‘siq bo‘lmoqda. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 96-moddasiga ko‘ra, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlar mehnatga jalb qilinishi mumkin va bu mehnat shartnoma asosida amalga oshiriladi. Mahkumlar davlatga tegishli yoki xususiy ishlab chiqarish korxonalarida ishlashi mumkin. Ularga to‘lanadigan ish haqi miqdori mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan tartibda belgilanadi. Biroq, amaliyotda bu ish haqi, ko‘pincha, mahkumning ishlab chiqargan mahsulotiga, ish kunining davomiyligiga yoki mehnatning murakkabligiga mutanosib bo‘lmayapti. Mahkumlarga to‘lanadigan oylik ish haqlari ko‘plab hollarda milliy mehnat standartlariga yoki O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida belgilangan eng kam oylik ish haqiga ham yetmaydi. Bu esa mahkumlar o‘rtasida norozilik tug‘diradi, ularda adolatsizlik hissini paydo qiladi va mehnatga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib keladi. Bundan tashqari, to‘langan ish haqlari ustidan turli majburiy ushlab qolishlar — aliment, jarima, zarar qoplash kabi majburiyatlar ham bor. Ba‘zan ushbu ushlab qolishlardan keyin mahkumga deyarli hech narsa qolmaydi. Bu holat iqtisodiy rag‘batlantirish prinsipiga mutlaqo zid keladi. Xalqaro amaliyotga murojaat qiladigan bo‘lsak, BMTning Nelson Mandela qoidalarida, shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining 29- va 105-sonli konvensiyalarida mahkumlar mehnati erkinlikka qayta tayyorlash vositasi sifatida qaraladi. Unga ko‘ra, mahkumlarning mehnat faoliyati ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanishi, sharoitlar xavfsiz va salomatlikka zarar yetkazmaydigan bo‘lishi, eng muhimi esa, ular o‘z mehnatlari uchun adolatli va bozor iqtisodiyotiga mos ravishda haq olishlari lozim. Ba‘zi mamlakatlarda mahkumlarning ishlab chiqargan mahsuloti real iqtisodiy qiymatga ega bo‘lib, ular orqali nafaqat o‘zlarining xarajatlarini, balki oilaviy majburiyatlarini ham qoplash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zbekistonda hozirgi paytda ayrim jazoni ijro etish muassasalarida ishlab chiqarish faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati past samaradorlikka ega, zamonaviy texnologiyalar yetishmaydi, mehnat sharoitlari esa eskirgan. Bu holat mahkumlar tomonidan ko‘proq “majburiy mehnat” sifatida qabul qilinadi. Ko‘plab hollarda ular kasbiy tayyorgarliksiz, mehnatni muhofaza qilish vositalarisiz ishlashadi. Bu esa ularning sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Mahkumlar mehnatini tartibga soluvchi tizimda yana bir muhim masala — shaffoflikdir. Ish

20-May, 2025-yil

haqi miqdori, ushlab qolishlar, xarajatlar va boshqa moliyaviy axborotlarning yopiq holda yuritilishi korrupsiyaga sharoit yaratadi, nazorat mexanizmlarining zaifligi sababli adolatsizlikka olib keladi. Shuning uchun bu tizimda zamonaviy raqamlashtirilgan nazorat platformalarini joriy etish, har bir mahkumning mehnat faoliyati, ishlab chiqargan mahsuloti va olgan haqiga oid ma'lumotlarni ochiq tizimda yuritish zarur. Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, jazoni ijro etish muassasalarida iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali mahkumlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish; ikkinchidan, ularning mehnatiga haq to'lashda eng kam ish haqi miqdorini kafolatlash; uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish; to'rtinchidan, mahkumlar mehnati ustidan mustaqil nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish va aholiga ochiq axborotlar bazasini shakllantirish. Yakuniy natijada, mahkumlarning mehnatiga munosib haq to'lanishi ularning iqtisodiy faolligini oshiradi, jamiyatga foydali mehnat bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratadi, qayta jinoyat sodir etish ehtimolini kamaytiradi va ularning jazodan keyingi ijtimoiy hayotga integratsiyalashuvini osonlashtiradi.

XULOSA

Mahkumlar mehnatiga haq to'lash masalasi zamonaviy jinoyat-ijroiya tizimining samarali faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo nafaqat huquqiy jihatdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy va insonparvarlik nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Mazkur maqolada ko'rib chiqilganidek, mahkumlarning mehnatga jalb qilinishi va ularga munosib ish haqi to'lanishi — ularning jamiyatga qayta moslashuvi, qayta jinoyat sodir etish darajasini kamaytirish va iqtisodiy mustaqilligini oshirish uchun muhim omillardandir. Shuningdek, bu jarayon mahkumlarning inson qadr-qimmatini hurmat qilish, ularning huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining mavjud qonunchilik bazasi mahkumlarning mehnatiga haq to'lashni ta'minlashga asos solgan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim muammolar, xususan, ish haqi miqdorining pastligi, moliyaviy shaffoflikning yetishmasligi, mehnat sharoitlarining zaifligi va mehnat faoliyatining ixtiyoriyligi masalalari mavjud. Bu holatlar mahkumlarning mehnatga bo'lgan motivatsiyasini pasaytiradi, ularning huquqiy himoyasini zaiflashtiradi va jamiyatga qayta moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Xalqaro standartlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, mahkumlarning mehnat faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularning ish sharoitlari sog'lom va xavfsiz bo'lishi, mehnat faoliyati ixtiyoriy tamoyilga asoslanganligi, mehnatga haq to'lash tizimi adolatli va raqobatbardosh bo'lishi zarur. Bunday yondashuv nafaqat mahkumlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, balki jazoni ijro etish tizimining umumiy samaradorligini oshiradi. Maqolada taklif etilgan chora-tadbirlar — mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish haqi tizimini qayta ko'rib chiqish, raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish, yangi ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratish va mustaqil nazorat mexanizmlarini joriy etish — jazoni ijro etish tizimidagi mehnat munosabatlarini tubdan takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu islohotlar nafaqat mahkumlarning iqtisodiy holatini yaxshilaydi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va qayta integratsiyasini ham jadallashtiradi. Shu bilan birga, mahkumlar mehnatiga haq to'lash masalasida davlat, huquqiy organlar, ijtimoiy tashkilotlar va jamiyat vakillari o'rtasida

20-May, 2025-yil

uzviy hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi lozim. Chunki bu jarayonni samarali amalga oshirish nafaqat jazoni ijro etish tizimining funksiyasi, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy adolat va inson huquqlarini himoya qilish tamoyillariga asoslangan muhim vazifa hisoblanadi. Natijada, mahkumlar mehnatiga haq to‘lash masalasidagi muammolarni hal qilish va amaliy islohotlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya tizimining samaradorligi oshadi, jamiyatda jinoyatchilik darajasi pasayadi va inson huquqlariga hurmat yanada mustahkamlanadi. Bu esa mamlakatimizda qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov D. Mahkumlar mehnati va ijtimoiy integratsiya: xalqaro tajribalar va O‘zbekistonda amaliyot. — T.: Iqtisodiyot va huquq, 2021.
2. Usmonova M. Jazoni ijro etish tizimida mehnatga haq to‘lash: muammolar va yechimlar. — “Huquqiy islohotlar” jurnali, 2022, №4.
3. Jahongirov N. Mahkumlarning ijtimoiy moslashuvi va mehnat faoliyati. — T.: Universitet nashriyoti, 2019.

Global
Science
Publication